

ILMGA BAXSHIDA UMR**Omonova Ma'mura Jamoldin qizi***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**Islomshunoslik fakulteti, 2-kurs, Dinshunoslik yo'nalishi*

Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir. Bu xitobga amal qilib yashagan, umrini ilm yo'liga tikkanlar ham talaygina. Ilmga borini berib, ummat g'amida yashab o'tgan Islom olamidagi ulamolarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Ulardan biri buyuk muhaddis, Islom dunyosida ko'zga ko'ringan ulamo Imom al-Buxoriydir. Uning asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriy bo'lib, hijriy 194-yil shavvol oyining 13-sanasi, juma kunida Buxoroda tavallud topdi. Oiladagi islomiy muhit, ota-onasining sa'y-harakatlari bilan yetuk ulamo darajasiga erishdi. Otadan erta ajrab qolgan Imom al-Buxoriy 9 yoshga yetganda Qur'oni Karimni to'raligacha yod oldi. Yoshligidan hadis ilmiga o'zgacha mehr qo'ydi va voyaga yetguncha qadar 10000dan ziyod hadisni yoddan aytib bera olish darajasiga yetdi. Buyuk muhaddis 18 yoshga kirganida haj amalini ado etish uchun akasi va onasi bilan yo'lga chiqdi. Haj amallarini bajarib bo'lgach, onasi va akasini Buxoroga jo'natib yuborib, o'zi o'sha yerlarda hadis ilmi bilan shug'ullanish uchun qoladi. Imom Buxoriydan bu ishga nima sababdan qo'l urgani haqida so'rashganda, u zot tushida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rganini va yelpig'ich bilan u kishini yelpiyotganligini ko'rganini, qolaversa, tushini ayrim ta'burchilarga aytsa, ta'burchilar bu tushda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan yolg'onlarni ketkazishiga ishora borligi haqida aytishganligining xabarini sabab qilib keltirgan ekan. Shunday qilib Imom Buxoriy Makkada ta'limini davom ettirib, Abdulloh ibn Yazid al-Muqriyga shogird tushadi. So'ngra Misr, Hijoz, Basra, Kufa, Xuroson va Bag'dod singari shaharlarga borib, hadislar to'play boshlaydi. To'plagan hadislarining soni 600000 dan oshdi va Buxoriy ana shu hadislarining ichidan 7397 ta sahihlarini to'plab, alohida kitob tuzdi. Uni "Al-jome' as-sahih" deb nomladi. Bu kitobning ustida muhaddis 16 yil ishladi. Tarjimai holidan aynan shu kitobni Alloh taolo bilan o'rtasida hujjat qilganligini va kitobga biron hadisni kiritishdan oldin g'usl qilib, ikki rak'at namoz o'qiganini aytadi. Shu tariqa bu kitob Islom dunyosida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi mo'tabar manba bo'lib ulgurdi. Muhammad ibn Yusuf aytadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni tushimda ko'ribman. U zot menga fiqhni emas, mening kitobimni o'qi, deya murojaat qildi va men u zotdan kitobi qaysi ekanligini so'raganimda Muhammad ibn Ismoilning kitobi deb aytdilar". U kishi yana so'zida davom etib: "Bir kuni yana tushimga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kirdilar va u zotdan mendan qayerga ketayotganimni so'radilar. Muhammad ibn Ismoilning huzuriga deb aytsam, salomlarini yetkazib qo'yishimni tayinladilar", -deb aytadi. Bu haqiqatlardan ko'rinadiki, Imom Buxoriy Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga muhabbatining isboti o'laroq yozgan bu kitobi

Allohning dargohida qabuldir.Imom Buxoriyning nomini tanitgan asarining birinchisi “Al-jome’ as-sahih” bo’lsa-da, u zotning qalamiga mansub boshqa kitoblari ham bordir.Ular “Al-adab al-mufrad”, “At-tarix al-kabir”, “At-tarix as-sag’ir”, “At-tarix al-avsat”, “At-tafsir al-kabir”, “Birrul volidayn”, “Asmo as-sahoba”, “Kunyalar” va boshqalardir.Ammo uning “Kitob al-favoid”(„Foydali ashyolar haqida kitob“), “Al-Jome’ al-kabiyr” (“Katta tayanch”), “Xalq af’ol al-ibod”, (“Alloh bandalari ishlarining tabiati”), “Al-Musnad al-kabiyr” (“Katta tayanch”), “At-tafsir al-kabiyr” (“Katta tafsir”), “Kitob al-xiba” (“Xayr-ehson haqida kitob”) va boshqa asarlarining ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor.

Ko’rinib turibdiki,Imom Buxoriy umrini Alloh yo’lida,ilm yo’lida mazmunli o’tkazdi,kitoblar yozish bilan,ziyo tarqatish bilan shug’ullandi,lekin hijratning 256-yili,shavvol oyining boshlarida Fitr hayiti kechasida 61 yoshida vafot etdi.Vafotidan so’ng esa solihlarning tushida tez-tez mehmon bo’ladigan bo’ldi.Vafoti kuni Abdulvohid ibn Adham at-Tavovisiy tushida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Imom Buxoriyni intiqlik bilan kutyotganini ko’rganligini aytgan.U zotning vafoti ham,kechirgan umri ham havas qilsa arzigulik,ibratga to’ladir!

Buyuk muhaddisning nomi,qoldirgan merosi biz avlodlar qalbidan alohida o’ringa ega.Mustaqillik yillarida esa ko’plab ajdodlarimiz,xususan, Buxoriyning o’lmas merosi qayta tiklandi.Nomini abadiylashtirish xususida ko’plab islohotlar amalga oshirildi.Misol tariqasida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo’yicha 1225-yilligini nishonlash to’g’risida”gi qarori asosida Buxoriyning ilmiy merosini o’rganish va targ’ib qilishga da’vat kuchaytirilganini keltirish mumkin.Qarorga muvofiq 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley sanasi keng nishonlandi.Alloma dafn etilgan Chelak tumanidagi Hartang qishlog’ida ulkan yodgorlik majmuyi ochildi.Imom Buxoriyning boy ma’naviy merosini chuqur o’rganish va keng targ’ib qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning tashabbusi bilan 1998-yil 4-noyabr kuni Imom al-Buxoriy xalqaro jamg’armasi tuzildi. Jamg’armaning asosiy vazifasi Qur’oni karim va Buxoriyning „al-Jome as-sahih“asari tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o’tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an’analarga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg’arma o’zining ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy „Imom al-Buxoriy saboqlari“ jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma’naviy merosimizdan bahramand etish,jamiyatda Islom ziyosini yanada keng miqyosda yoyish, milliy, diniy qadriyatlarining mohiyatini ochib berishda yordam berishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yan.O’zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilganligining isboti Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilganligidir. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag’ishlab bir necha tillarda kitob,albom,film(1995), “Hadis ilmining sultoni”4 qisimli kinoqissa (1998) yaratilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. -T.: Sharq, 2011.